QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI MINISTRLER KEŃESINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyul | 412-13-0-Q/25 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha komissiya tarkibi va vaqtincha tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda aholi faravonligini ta’minlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni 5-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda aholi faravonligini ta’minlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni 5-bandi topshiriqlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan 2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga o‘zining qarori asosida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha, istisno tariqasida vakolat berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning)

yer fondi toifasini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha vaqtincha tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **F.Ermanov**

Qoraqalpog′iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 30-iyuldagi
412-13-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasi

T A R K I B I

F.Ermanov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, ***Komissiya raisi***
Sh.Teshayev	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, ***Komissiya raisi o‘rinbosari***
U.Xasanov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlikka ko‘maklashish dereksiyasi direktori, ***Komissiya raisi o‘rinbosari ****
B.Yusupov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri
I.Tleuov	-	Kadastr agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i
S.Urunbaev	-	Davlat kadastrlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i
Q.Aytbaev	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
A.Aminov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi raisi
J.Yerejepov	-	“O‘zdavyerloyiha” DILI “Qryerloyiha” bo‘linmasi direktori
B.Ibragimov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari, ***Komissiya kotibi***

*** Izoh: Komissiya raisi o‘rinbosari (U.Xasanov)** yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha komissiya a’zolarini hamda ishchi organ faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qilib boradi.

Qoraqalpog′iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 30-iyuldagi
412-13-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha

VAQTINCHA TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib 2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga o‘zining qarori asosida o‘rmon fondi yerlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirishmasalalarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Tartib Qoraqalpog‘iston Respublikasida **o‘rmon fondi yerlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish** (keyingi o‘rinlarda- toifasi o‘zgaradigan yerlar) uchun tatbiq etiladi.

**mazkur tartib o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar fondidagi sug‘oriladigan ekin yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlarga tadbiq etilmaydi.*

2. Ushbu Tartibga quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

yer fondi toifasi — yer fondining asosiy foydalanish maqsadi, ya’ni yerlardan yer-kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlar nazarda tutilgan holda foydalanishning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlari asosida chegaralangan qismi;

yer fondi toifasini o‘zgartirish — o‘rmon fondi yerlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi yerlarini ularning asosiy foydalanish maqsadini o‘zgartirish orqali yer fondining boshqa toifasiga o‘tkazish;

yer uchastkasi — yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish joyiga, huquqiy rejimga hamda davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo‘lgan qismi;

yer tuzish loyihasi — sug‘oriladigan yerlarga eng kam salbiy ta’sirni inobatga olgan holda tegishli obyektni joylashtirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligi ko‘rsatib o‘tilgan yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha ishlab chiqilgan hujjatlar to‘plami;

ishchi organ — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi;

komissiya - 2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasi;

o‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalar—yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan va qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yerlar

yaylov — chorva mollari uchun ozuqa bo‘lgan o‘simliklarning tabiiy qoplamiga ega yerlar.

3. Tuman (shahar) hokimliklari toifasi o‘zgaradigan yerlarning er tuzish loyihalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga takliflarni ishchi organ orqali taqdim etadi.

4. Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha masalalarni ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq sxemada ko‘rib chiqadi.

2-bob.Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish

5. Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tegishli tuman tashkilotlarini jalb qilgan holda toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi hamda har bir taklif bo‘yicha yer uchastkasi hujjatlarining yig‘ma jildini shakllantirib komissiyaga taqdim etadi.

Bunda:

yer uchastkasining rangli kadastr xaritasi (koordinatali nuqtalari, chegaradosh yer uchastkalaridan foydalanish turlari ko‘rsatilgan vaziyat bilan bog‘liq sxema);

yer uchastkasining joylashgan joyi (geografik koordinatalari);

yer uchastkasining umumiy maydoni, toifasi va turi (amaldagi holat bo‘yicha);

yer uchastkasining tuproqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (tipi, tarkibi, sifati va unumdorligi);

yer uchastkasining suv bilan ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha xulosa;

yer uchastkasining kadastr raqami, konturlari soni va raqami;

yer uchastkasining zaxiraga olingan va (yoki) olinmaganligi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va (yoki) o‘tkazilmaganligi;

yer uchastkasidagi mavjud davlat kadastri obyektlari (gaz, aloqa va energetika obyektlari, avtomobil va temir yo‘llar, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo‘lgan tegralar, transport quvurlari, gidrotexnik inshootlar, muhofaza qilinadigan obyektlar va hududlar hamda boshqalar) to‘g‘risida ma’lumotlar;

yer uchastkasidan so‘nggi 5 yil ichida foydalanish holati;

yer uchastkasining yer osti suvlari to‘g‘risida xulosa (yaylov yer maydonlari uchun);

yer uchastkasida mavjud yer usti va osti qazilma boyliklari va konlari to‘g‘risida xulosa;

yer uchastkasidan qishloq va o‘rmon xo‘jaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish hisobiga kutiladigan foyda to‘g‘risida ma’lumotlar;

yer uchastkasini boshqa toifaga o‘tkazish hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlari va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomalar.

6. Komissiya tuman(shahar) hokimligidan kelib tushgan hujjatlarni yer uchastkasining yer tuzish loyihasini ishlab chiqish uchun «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasiga yuboradi.

Bunda tuman (shahar) hokimligi taklifiga yer uchastkasi hujjatlarining yig‘majildi ilova qilinadi.

7. «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasi kelib tushgan takliflarni un ish kun ichida shartnoma asosida (bunda shartnoma tuman(shahar) hokimligi yoki tashabbuskor bilan tuzishi mumkin) yer tuzish loyihasini ishlab chiqadi.

Bunda, yer tuzish loyihasini ishlab chiqish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

yer uchastkasining amaldagi holati bilan taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning muvofiqligini joyiga chiqqan holda o‘rganish;

qurilish obyektining yer uchastkasi konturlari chegarasi, ichki yo‘llar va suv xo‘jaligi obyektlari bo‘ylab, sug‘oriladigan yerlarga eng kam salbiy ta’sirini inobatga olgan holda joylashtirilayotganligini aniqlash;

yer uchastkasida davlat kadastri obyekti mavjud bo‘lganda, yer tuzish loyihasini qo‘shimcha tarzda davlat kadastrini yurituvchi tashkilot bilan kelishish;

yer uchastkasida ko‘chmas mulk va (yoki) ko‘p yillik daraxtzorlar mavjud bo‘lganda, ularni baholatish uchun tuman (shahar) hokimligi va (yoki) manfaatdor tashkilotga murojaat qilish hamda baholash hujjatini yer tuzish loyihasiga ilova qilish.

8. «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasi tomonidan quyidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tuman(shahar) hokimligidan zarur hujjatlarni so‘rab olishi yoki qaytarishi mumkin:

yer uchastkasi hujjatlarining yig‘majildi taqdim etilmaganda;

yig‘majildda zarur hujjatlar to‘liq bo‘lmaganda;

qurilish obyekti joylashuv joyidagi holatga mos kelmaganda;

ko‘chmas mulk va (yoki) ko‘p yillik daraxtzorlar baholanmaganda;

taklif etilayotgan yer uchastkalari tuman hokimligi zaxirasida bo‘lmaganda;

yer fondi toifasi va (yoki) yer turida farq mavjud bo‘lganda.

9. Yer uchastkasining yer tuzish loyihasida quyidagilar aks ettiriladi:

qurilish obyektining yerdan foydalanish maqsadiga muvofiq toifasi o‘zgaradigan yerlarni boshqa yer fondi toifasiga o‘zgartirish;

qurilish obyektining joylashtirilishi hisobiga yer uchastkasi tuprog‘i unumdorligining pasayishi, irrigatsiya va melioratsiya tizimining buzilishi bilan bog‘liq zararlar;

yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligi miqdori;

yer uchastkasi mulkdorlari, foydalanuvchilari va ijarachilariga yetkaziladigan zararlar;

yer uchastkasida agrotexnik tadbirlar uchun sarflangan xarajatlar.

10. «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasi tomonidan yer uchastkasining yer tuzish loyihasini ishlab chiqib, tuman(shahar) hokimligiga taqdim etadi.

11. Tuman (shahar) hokimliklari «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasi tomonidan ishlab chiqilgan yer uchastkasining yer tuzish loyihasini bir ish kuni ichida rasmiy xat bilan ushbu Tartibning 2-ilovasiga muvofiq shaklda ishchi organga kiritadi.

Bunda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son Farmoniga muvofiq qishloq va o‘rmon xo‘jaligiga yetkaziladigan zarar (nobudgarchiliklar miqdori)ni hisoblash hamda ushbu yer uchastkasidan qishloq va o‘rmon xo‘jaligidan boshqa maqsadda foydalanish hisobiga kutiladigan foyda, yaratiladigan ish o‘rni va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnoma ko‘rsatilishi;

qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishining nobudgarchiliklari qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi shart.

3-bob. Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha takliflarni o‘rganish.

12. Ishchi organ tuman (shahar) hokimliklari takliflarini uch ish kuni ichida umumlashtiradi, ushbu takliflarni joyiga chiqqan holda o‘rganish uchun quyidagi davlat boshqaruvi organlari yuboradi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi;

Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi.

Mazkur vazirlik va idoralar takliflarni uch ish kunida O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 44 va 45-moddasi hamda boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganadi.

O‘rganish ishlarini o‘z vaqtida tashkil etish va malakali mutaxassis bilan ta’minlashga mazkur bandda ko‘rsatib o‘tilgan davlat boshqaruvi organlari rahbarlari shaxsan mas’ul va javobgar hisoblanadi.

13.O‘rganish natijalari bo‘yicha joyida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va ishchi organga taqdim etiladi.

Dalolatnomada o‘rmon fondining o‘rmon bilan qoplangan yerlari, shuningdek, yer uchastkasidan foydalanish holati (foydalanish uchun berilgan yoki zaxiraga olinganligi) to‘g‘risida ma’lumotlar kiritiladi.

14.Ishchi organ taqdim etilgan hujjatlar va rasmiylashtirilgan dalolatnomalar asosida uch ish kunida tuman (shahar) hokimliklari takliflarini qabul qilish yoki qabul qilmaslik yoxud qayta ishlash uchun qaytarish to‘g‘risida xulosani tayyorlaydi.

15. Quyidagi hollarda ishchi organ tomonidan tuman (shahar) hokimliklari takliflari rad etiladi:

alohida qimmatga ega bo‘lgan va tuproq unumdorligi tumanning o‘rtacha ball bonitetidan yuqori bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlar;

o‘rmon fondining o‘rmon bilan qoplangan yerlari;

foydalanish uchun berilgan va tuman hokimligi zaxirasiga olinmagan yerlar toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar taqdim etilganda.

Mazkur bandning ikkinchi va uchinchi xatboshisidagi talablarga muvofiq rad etilgan yerlar toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar qayta ko‘rib chiqilmaydi.

16. Quyidagi hollarda ishchi organ tomonidan tuman (shahar) hokimliklari takliflari qayta ishlash uchun qaytariladi:

yer uchastkasining yer tuzish loyihasi ishlab chiqilmaganda;

yer uchastkasi toifasini o‘zgartirish hisobiga qishloq va o‘rmon xo‘jaligiga yetkaziladigan zarar miqdori aniqlanmaganda;

yer uchastkasidan qishloq va o‘rmon xo‘jaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish hisobiga kutiladigan foyda to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etilmaganda;

yer uchastkasi toifasini o‘zgartirish hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlari va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomalar berilmaganda.

17. Ishchi organ toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha xulosalarni mazkur Tartibning 2, 3, va 4-ilovalarga muvofiq shaklda komissiyasiga kiritadi.

4-bob.Komissiya tomonidan ishchi organ xulosalarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish

18. Komissiya uch ish kuni ichida ishchi organ tomonidan taqdim etilgan tuman (shahar) hokimliklari takliflari va xulosalarni ko‘rib chiqib, tegishli qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydi.

Komissiya qarorlari bayon shaklida rasmiylashtiriladi.

19.Ishchi organ komissiyaning ijobiy qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori loyihasini bir ish kun ichida tayyorlab Vazirlar Kengashiga kiritadi.

Vazirlar Kengashi qaror loyihasini bir ish kuni ichida “e-qaror” electron tizimiga joylashtiradi.

20. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tegishli qarori qabul qilinganidan so‘ng bir ish kun ichida Davlat kadastrlari palatasi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yer fondiga tegishli o‘zgartishlar kiritadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Ushbu Tartib talablarini qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

22. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha vaqtinchalik tartibiga
1-ilova

O‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
I. Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish			
1-bosqich	Tuman (shahar) hokimligi	Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha taklifini komissiyaga taqdim etadi.	Doimiy
2-bosqich	Komissiya	Tuman (shahar) hokimligidan kelib tushgan hujjatlarni yer uchastkasining yer tuzish loyihasini ishlab chiqish uchun «O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha”	1 ish kuni ichida

		bo‘linmasiga yuboradi.	
3-bosqich	«O‘zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining “QRyerloyiha” bo‘linmasi	Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha yer tuzish loyihasini ishlab chiqadi va tuman (shahar) hokimligiga kiritadi.	10 ish kuni ichida
4-bosqich	Tuman (shahar) hokimliklari	Tuman (shahar) hokimligi taklifini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (ishchi organ)ga kiritadi.	1 ish kuni ichida

II. Toifasi o‘zgaradigan yerlar bo‘yicha takliflarni o‘rganish

1-bosqich	Ishchi organ	Tuman (shahar) hokimliklari takliflarini umumlashtiradi, ushbu takliflarni joyiga chiqqan holda o‘rganish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmalariga yuboradi.	3 ish kuni ichida
2-bosqich	Ishchi organ, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Tuman (shahar) hokimligi takliflarini joyiga chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 44 va 45-moddasiga hamda boshqa	3 ish kuni ichida

	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmalari	qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini o‘rganib, dalolatnoma rasmiylashtiradi.	
3-bosqich	Ishchi organ	Taqdim etilgan hujjatlar va rasmiylashtirilgan dalolatnomalar asosida tuman (shahar) hokimliklari takliflarini qabul qilish yoki qabul qilmaslik yoxud qayta ishlash uchun qaytarish to‘g'risidagi xulosani tayyorlaydi va komissiyasiga kiritadi.	3 ish kuni ichida

III. Komissiya tomonidan ishchi organ xulosalarini ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilish

1-bosqich	Komissiya	Ishchi organ tomonidan taqdim etilgan tuman (shahar) hokimliklari takliflari va xulosalarni ko‘rib chiqib, tegishli bayon shaklida qarorlar qabul qilinishni ta’minlaydi.	3 ish kuni ichida
2-bosqich	Ishchi organ	komissiyaning ijobiy qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar	1 ish kuni ichida

		Kengashiga kiritadi.	
3-bosqich	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi	Vazirlar Kengashi qaror loyihasini “e-qaror” elektron tizimiga joylashtiradi.	1 ish kuni ichida
4-bosqich	Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iton Respublikasi boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori qabul qilinganidan so‘ng qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritadi.	1 ish kuni ichida

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha vaqtinchalik tartibiga 2-ilova

_____ tuman (shahar) hokimligining o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha

TAKLIFI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni, ga	Shundan		Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligi o‘rni, ming so‘m	O‘zgartirish taklif etilayotgan yer fondi toifasi	Taklif etilayotgan foydalanish maqsadi	Asos
					yaylovlar	boshqa yerlar				

2025-2027-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha vaqtinchalik tartibiga 3-ilova

O‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha qayta ishlash uchun qaytariladigan yer uchastkalari

RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni, ga	Shundan		O‘zgartirish taklif etilayotgan yer fondi toifasi	Taklif etilayotgan foydalanish maqsadi	Qaytarish uchun asos
					Yaylovlar	boshqa yerlar			

2025-2027 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha vaqtinchalik tartibiga 4 ilova

O‘rmon fondi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibidagi sug‘orilmaydigan yer uchastkalarining (yaylovlar, suv yetib bormaydigan, unumdorligi past bo‘lgan yerlarning) yer fondi toifasini o‘zgartirish rad etilgan yer uchastkalari

RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni, ga	Shundan		O‘zgartirish taklif etilayotgan yer fondi toifasi	Taklif etilayotgan foydalanish maqsadi	Rad etish uchun asos
					Yaylovlar	boshqa yerlar			